

AN'ANAVIY MADANIYATLARDA SIYOSIY YETAKCHILIK TABIATI

Mavlonova Dilrabo Farhodjon qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287047>

Annotatsiya. Ushbu maqola an'anaviy madaniyatlarda siyosiy yetakchilikning tabiati va shakllanish jarayonlarini tahlil qiladi. An'anaviy madaniyatlarda siyosiy hayot urf-odatlar, diniy e'tiqodlar va ijtimoiy tuzilmalarga asoslangan bo'lib, boshqaruv tizimlari odatda merosiylik, diniy yetakchilik yoki qabila boshqaruvi orqali shakllangan. Boshqaruvida asosan ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga tayangan bu jamiyatlarda tajribali va dono keksa avlod vakillari alohida ahamiyat kasb etgan. Maqolada siyosiy yetakchilikning turli shakllari, xususan, patriarxal va teokratik tizimlar, shuningdek, qabila boshqaruvi va oqsoqollar kengashi kabi jamiyatda qarorlar qabul qilish usullari ko'rib chiqiladi. Maqola an'anaviy siyosiy tizimlarning zamonaviy boshqaruvga ta'sirini o'rganadi va bu tizimlarning bugungi siyosiy jarayonlardagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy yetakchilik, an'anaviy jamiyat, hokimiyat, madaniyat, qabila boshqaruvi, teokratiya, tarixiy tajriba.

Annotation: This article analyzes the nature and formation process of political leadership in traditional cultures. Political life in traditional cultures is based on customs, religious beliefs, and social structures, with governance systems typically formed through inheritance, religious leadership, or tribal rule. In these societies, which are primarily based on social and moral values, experienced and wise representatives of the older generation have played a special role. The article explores various forms of political leadership, particularly patriarchal and theocratic systems, as well as decision-making methods in society, such as tribal governance and elder councils. The article examines the impact of traditional political systems on modern governance and analyzes their relevance in contemporary political processes.

Keywords: political leadership, traditional society, power, culture, tribal governance, theocracy, historical experience.

Аннотация: Эта статья анализирует природу и процесс формирования политического лидерства в традиционных культурах. Политическая жизнь в традиционных культурах основана на обычаях, религиозных верованиях и социальных структурах, при этом системы управления обычно формируются через наследование, религиозное руководство или племенное правление. В этих обществах, основанных преимущественно на социальных и моральных ценностях, особое значение имели опытные и мудрые представители старшего поколения. В статье рассматриваются различные формы политического лидерства, особенно патриархальные и теократические системы, а также методы принятия решений в обществе, такие как племенное управление и советы старейшин. В статье исследуется влияние традиционных политических систем на современное управление и анализируется их значение в современных политических процессах.

Ключевые слова: политическое лидерство, традиционное общество, власть, культура, племенное управление, теократия, исторический опыт.

An'anaviy madaniyatlar insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, har bir jamiyatning

siyosiy yetakchilik tizimi o'ziga xos tamoyillarga asoslangan. Siyosiy yetakchilik har bir jamiyat barqarorligi va taraqqiyotida muhim rol o'ynab, qadimdan jamiyatni boshqarish, ijtimoiy tartibni saqlash va umumiy manfaatlarni ta'minlash vositasi sifatida shakllangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy madaniyatlarda siyosiy yetakchilikning samaradorligi faqat shaxsiy fazilatlar bilan emas, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. An'anaviy jamiyatlarda siyosiy yetakchilik odatda merosiylik, diniy e'tiqodlar yoki qabila boshqaruvi asosida rivojlangan bo'lib, u ijtimoiy qadriyatlar va urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu yetakchilik shakllari zamonaviy siyosiy tizimlardan ancha farq qiladi. Ushbu maqola an'anaviy jamiyatlarda siyosiy yetakchilikning shakllanish omillari, uning asosiy xususiyatlari va turli xalqlardagi namoyon bo'lish shakllarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – an'anaviy siyosiy yetakchilikning ijtimoiy-madaniy ildizlarini aniqlash va ularning zamonaviy siyosiy yetakchilik bilan o'zaro aloqasini tahlil qilishdir.

Yetakchilik dunyoda hokimiyat va tashkilot paydo bo'lgan davrlardan buyon jamiyatni uyushtiruvchi omillardan biri sifatida yashab kelmoqda. U turli jamiyatlar va tarixiy sharoitlarda turlicha shakllangan. An'anaviy madaniyatlarda siyosiy yetakchilik ko'pincha zamonaviy demokratik boshqaruvdan farq qilgan. Ko'plab an'anaviy jamiyatlarda siyosiy urug'-qabilaviy tizim asosida shakllanib, hokimiyat bir avloddan boshqasiga o'tgan. Bunda yetakchi nafaqat siyosiy boshqaruvchi, balki nizolarni hal qiluvchi, marosimlarni boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lgan. Bunda boshqaruv turli shakllarda amalga oshirilib, bularning barchasi muayyan madaniy muhit va tarixiy sharoitlar asosida shakllangan.

Siyosiy yetakchilikning eng qadimiy shakllaridan biri qabila boshqaruvi bo'lib, ko'plab an'anaviy jamiyatlarda hokimiyat bir avloddan boshqasiga o'tgan. Boshqaruv odatda qabilaning eng keksa va hurmatga sazovor a'zolari tomonidan ijtimoiy tizimning asosiy qadriyatlari hisoblangan adolat, tenglik va hamjihatlik kabi tamoyillarga tayanib amalga oshirilgan. Qarorlar o'tkazilgan maslahatlar asosida qabul qilingan, bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlagan.

Teokratik shakldagi yetakchilik esa diniy e'tiqodlar va muqaddaslik tamoyillariga asoslangan. Bu tizimda siyosiy hokimiyatni diniy rahbarlar yoki hukmdorlar amalga oshirgan. Bunday madaniyatlarda siyosiy yetakchilar ko'p hollarda ilohiy kuch bilan bog'liq deb hisoblangan: ular ilohlar yoki ajdodlar nomidan gapirgan, shu sababdan ularning hokimiyati muqaddas hisoblanib, qarorlari so'zsiz bajarilgan. Bu shakl Misr fir'avnlar, Mayya va Inka sivilizatsiyalari hamda Mesopotamiya hukmdori Xammurappi boshqaruvida yaqqol ko'zga tashlanadi.

An'anaviy madaniyatlarda siyosiy yetakchilik xalqning ehtiyojlari va ijtimoiy tuzilishiga qarab shakllangan. Qabila boshliqlari, oqsoqollar va diniy yetakchilar o'z jamiyatlarini boshqarishda turli usullardan foydalangan bo'lsalar-da, ularning asosiy maqsadi barqarorlik va adolatni ta'minlash bo'lgan. Bunday boshqaruv tizimlari, odatda, jamiyatning ijtimoiy birligi va muvozanatini saqlashga, urushlar va nizolarni bartaraf etishga qaratilgan edi. Bu esa yetakchining xalq bilan yaqin muloqotda bo'lishini, ularning ehtiyojlarini to'g'ri tushunib, o'z vaqtida amaliy qarorlar qabul qilishni talab qilardi.

An'anaviy jamiyatlarda siyosiy rahbarlar ko'pincha uzoq muddatli tajribaga ega bo'lib, oqsoqollar yoki diniy rahbarlar, o'zaro maslahatlashuvlar orqali muhim qarorlar qabul qilishar

edi. Bu boshqaruv tizimi, boshqaruvchi bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qildi. O'sha davrning yetakchilari o'z e'tiborini nafaqat adolat va barqarorlikni saqlashga qaratgan, ayni paytda ularning hukmronligi xalqning ijtimoiy ehtiyojlariga javob bera olishiga asoslangan edi.

Ushbu yetakchilik tamoyillari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Zamonaviy siyosatda demokratik boshqaruv shakllari yetakchi tamoyilga aylangan bo'lsa ham, an'anaviy madaniyat ta'siri sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Hozirgi siyosiy tizimlarda ham, xalq bilan yaqin muloqotda bo'lish, mas'uliyatni his qilish va adolatli bo'lish kabi qadriyatlar yetakchilar uchun muhim fazilatlar bo'lib qolmoqda. Zamonaviy siyosiyatda siyosiy liderlar jamiyatni rivojlantirish uchun ichki, qolaversa tashqi siyosatda ham adolatni, tenglikni va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Shunday ekan, an'anaviy siyosiy yetakchilikni o'rganish nafaqat tarixiy tajribadan saboq chiqarish, balki kelajakdagi yetakchilarning yanada samarali boshqaruv usullarini shakllantirishiga xizmat qiladi.

Tarixdan o'rganilgan saboqlar siyosatni rivojlantirish va xalq manfaatlarini himoya qilish uchun muhim vosita bo'lib qoladi. An'anaviy madaniyatlarda shakllangan yetakchilik tamoyillari, ayniqsa, adolat, rahbarning mas'uliyati va xalqni hurmat qilish kabi fazilatlar zamonaviy siyosatda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Demak, zamonaviy siyosatni tashkil etishda an'anaviy madaniyatdagi boshqaruv usullarini o'rganish va ulardan foydalangan holda, siyosiy tizimni yanada mustahkamlash mumkin.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fox, R. (1995). The Power of the Chief: Political Leadership in Tribal Societies. Routledge.
2. Wilson, J. (1995). The Political Structures of the Ancient World. Cambridge University Press.
3. Fukuyama, F. (2011). The Origins of Political Order: From Prehuman Times to the French Revolution. Farrar, Straus and Giroux.
4. Tilly, C. (2007). Democracy. Cambridge University Press.
5. Berman, S. (2013). The Politics of Style: The Role of Traditional Leadership in Modern States. Princeton University Press.